

## **2-Ma’ruza. Ko’phadni ko’phadga bo’lish. Bezu teoremasi. Tenglama tushunchasi. Tenglama yechimi.**

**Reja:**

1. Birhad va Ko’phad haqida tushuncha berish.
2. Bezu teoremasi.
3. Tenglama turlari va uni yechish usullari.

**Ta’rif-1** Sonlarning, o’zgaruvchilarning va darajali o’zgaruvchilarning o’paytmasiga birhad deyiladi.

**Misol-1**  $2ax, 3a^2bc^3, 0,5y^4$ - kabilar birhad deyiladi.

$a^2 + 3, x-1, 3a-2$  - birhad emas.

**Ta’rif-2** Birhadning darajasi deb unda qatnashayotgan noma’lumlar darajasining yig’indisiga aytildi.

**Misol-2**  $2ax- 2$ - darajali;  $3a^2bc^3- 6$ -darajali birhad.

**Ta’rif-3** Bir necha birhadlar yig’indisi ko’phad deyiladi.

**Misol-3**  $4x^2 + 5ay + 3x^3y, 2x + 3x^2 + 7x^3 - 6x^4$  ko’phadlar.

**Ta’rif-4** Ko’phadning darajasi deb unda qatnashayotgan birhadlarning eng katta darajasiga aytildi.

**Misol-4**  $4x^2 + 5ay + 3x^3y - 4$ -darajali;  $3a^2 + 4a^2b - 3$ -darajali

**Ta’rif-5** Bir o’zgaruvchidan iborat ko’phad polinom deyiladi.

**Misol-5**  $3x^2 + 4x^3 - 6x^4; 3a - 7a^2; 8b^3 - 3b^2 + 2b$ - polinom

Ko’phadni ko’phadga bo’lish ham sonlarni bo’lgan kabi bajariladi:

1)

$$\begin{array}{r} 2x^3-3x^2+4x+9 \\ \underline{-2x^3+2x^2} \\ \hline -5x^2+4x+9 \\ \underline{-5x^2-5x} \\ \hline 9x+9 \\ \underline{9x+9} \\ \hline 0 \end{array}$$

2)

$$\begin{array}{r} 3x^3-2x^2+4x+5 \\ \underline{-3x^3-6x^2} \\ \hline -4x^2+4x+5 \\ \underline{-4x^2-8x} \\ \hline 12x+5 \\ \underline{12x-24} \\ \hline 24 \end{array}$$

$$2x^3 - 3x^2 + 4x + 9 = (x + 1)(2x^2 - 5x + 9) \quad 3x^3 - 2x^2 + 4x + 5 = (x - 2)(3x^2 + 4x + 12) + 29$$

Xo’sh qanday hollarda ko’phadlar qoldiqsiz bo’linadi? Bunga Bezu teoremasi javob beradi.

$f(x)=a_0x^m + a_1x^{m-1} + a_2x^{m-2} + \dots + a_{m-1}x + a_m$  ko’phad berilgan bo’lsin.

**Teorema (Bezu).**  $f(x)$  ko’phad  $(x-k)$  ko’phadga bo’linishi uchun  $f(k)=0$  bo’lishi zarur va yetarli.

$\Delta f(x): (x-k) \Leftrightarrow f(k)=0$

Zaruriyligi  $f(x)$ :  $(x-k) \Rightarrow f(k)=0$

$$f(x)=P(x)(x-k)$$

$$f(k)=P(k) 0, f(k)=0$$

Yetarliligi  $f(k)=0 \Rightarrow f(x):(x-k)$

$$f(x)=P(x)(x-k)+A$$

$$f(x)=P(k) 0+A, A=0 \Rightarrow f(x):(x-k) \Delta$$

Bezu teoremasi algebraning asosiy teoremasi deyiladi. Yuqoridagi misollarda, haqiqatdan ham

$$2x^3 - 3x^2 + 4x + 9 : (x+1) \text{ tekshirib ko'rsak } x=-1 \text{ da}$$

$$2(-1)^3 - 3(-1)^2 + 4(-1) + 9 = -2-3-4+9=0$$

$$3x^3 - 2x^2 + 4x + 5 : (x-2) \text{ da } x=2 \text{ ni qo'yamiz}$$

$$3(2)^3 - 2(2)^2 + 4(2) + 5 = 24-8+8+5=29$$

Ko'phadlarni ko'phadga bo'lish qanday hollarda yordam beradi?

$$\text{Misol: } \frac{x^2-3x-5}{x-4} + \frac{x^2-6x+3}{x-6} \leq 2x + 1 \quad (1)$$

$$\begin{array}{r} \begin{array}{c} -x^2 - 3x - 5 \\ -x^2 - 4x \\ \hline -x - 5 \\ -x - 4 \\ \hline -1 \end{array} & \left| \begin{array}{c} x-4 \\ x+1 \end{array} \right. \\ \\ \begin{array}{c} -x^2 - 6x + 3 \\ -x^2 - 6x \\ \hline 3 \end{array} & \left| \begin{array}{c} x-6 \\ x \\ \hline 3 \end{array} \right. \end{array}$$

$$x^2 - 6x + 3 = x + \frac{3}{x-6}$$

$$x^2 - 3x - 5 = x + 1 + \frac{-1}{x-4}$$

Shunday qilib (1) ni  $x + 1 - \frac{1}{x-4} + x + \frac{3}{x-6} \leq 2x + 1$  deb yozib olsa bo'ladi.

$$\frac{3}{x-6} - \frac{1}{x-4} \leq 0 \Rightarrow x \in [3;4] \cup [6; \infty).$$

Noma'lum o'zgaruvchi qatnashgan algebraik tenglikka tenglama deyiladi.  $f(x)$  va  $\varphi(x)$  lar x o'zgaruvchining ko'phadlari bo'lsa,  $f(x)=\varphi(x)$  tenglikni qanoatlantiruvchi x larni topish masalasiga bir noma'lumli tenglamani yechish deyiladi.

Tenglama ildizga ega bo'lmasi ham mumkin:

$$2x+5=2x+4 \quad - \text{ ildizi yo'q}$$

Bir xil ildizlarga ega tenglamalar teng kuchli tenglamalar deyiladi:  $3x+6=18$  va  $2x=8$

Tenglamalarning turlari va ularni yechish usullari bilan amaliy mashg'ulotlarda batafsil tanishamiz.

$$\text{Misol } \frac{7x}{2} - \frac{x+15}{3} = 2 - \frac{5+x}{6}$$

Bundan so'ng, har ma'ruza yakunida mavzu bo'yicha 5-6 ta misol va masala berib, yil yakunida olinadigan "200 talik topshiriqlar to'plami"ni shakllantirib boramiz.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Bezu teoramesi va uning isbotini aytинг.
2. Ko'phadlarni bo'ling  $2x^3 - 3x^2 + 2x + 5 : (x-1)$
3. Ko'phadni ko'phadga bo'lgandagi qoldiqni aniqlang:  $\frac{4x^3 + 3x^2 + 2x + 1}{x+4}$  bo'lishni bajarmasdan qoldiqni aniqlang.
4. Tenglamani yeching  $\frac{3x}{6} + \frac{4x+1}{5} = 8 + \frac{2x}{3}$
5. Kvadrat tenglamani yeching  $9x^2 - 6x + 1 = 0$
6. Bikvadrat tenglamani yeching  $x^4 + 3x^2 - 4 = 0$

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oliy matematika. (F.Rajabov) 2007-y. Toshkent.
2. Matematika. (A. Sanginov) 2011-y. Toshkent.
3. Oliy matematikadan misol va masalalar. (Sh.Xurramov) 2015-y. Toshkent.
4. [www.mathprofi.ru](http://www.mathprofi.ru) internet sayti.